

O'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI"

Haqqulov Mehriddin Yunusovich

Osiyo xalqaro universiteti

"Tarix va filologiya" kafedrasи o'qituvchisi.

mexriddinhaqqulov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14520900>

Annotatsiya. Ozodlik va mustaqillik g'oyalalarini o'zida mujassamlashtirgan va o'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan muhim voqealardan biri bu Turkiston Muxtoriyatidir. Bugungi kunda Turkiston Muxtoriyati uchun kurash tarixini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy jamoatchilik e'tiborini ko'pdan o'ziga jalg etib kelayotgan Muxtoriyat tarixi hozirda nafaqat ilmiy, balki amaliy va hatto siyosiy nuqtai nazardan kiziqish uyg'otishi tabiiy. Chunki davr o'sha yillar voqealariga qayta baho berishini taqozo etmoqda. Shunisi ham borki, Turkistonda Muxtoriyat uchun kurash jarayonida demokratik milliy davlatchilikni barpo etish mafkurasи ham shakllana bordi.

yanch so'zlar: Muxtoriyat, ozodlik, jadidchilik, ma'rifat, Turkiston, Sovet hokimiyati, bolsheviklar, Toshkent, Qurultoy, Mahmudxuja Behbudiy, milliy democrat, Yevrona, Osiyo, Rossiya, Ulug' Turkiston, 27-noyabr, El bayroni.

"TURKESTAN AUTONOMY", THE DREAM OF FREEDOM FOR THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

Abstract. One of the important events that embodied the ideas of freedom and independence and left an indelible mark in the history of the Uzbek people is the Independence of Turkestan. Today, studying the history of the struggle for the independence of Turkestan is of particular importance. It is natural that the history of Autonomy, which has been attracting the attention of the scientific community for a long time, arouses interest not only from a scientific, but also from a practical and even political point of view. Because time demands a reassessment of the events of those years. There is also the fact that in the process of struggle for autonomy in Turkestan democratic national statehood the ideology of establishment was also taking shape.

Key words: Autonomy, freedom, modernism, enlightenment, Turkestan, Soviet power, Bolsheviks, Tashkent, Kurultay, Mahmudxuja Behbudiy, national democrat, Eurona, Asia, Russia, Greater Turkestan, November 27, El Bayron.

ТУРКЕСТАНСКАЯ АВТОНОМИЯ», КОТОРАЯ ЯВЛЯЕТСЯ МЕЧТОЙ О СВОБОДЕ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Аннотация. Одним из важных событий, воплотивших идеи свободы и независимости и оставивших неизгладимый след в истории узбекского народа, является

Независимость Туркестана. Сегодня изучение истории борьбы за независимость Туркестана приобретает особое значение. Естественно, что история Автономии, давно привлекающая внимание научной общественности, вызывает интерес не только с научной, но и с практической и даже политической точки зрения. Потому что время требует переоценки событий тех лет. Имеется и тот факт, что в процессе борьбы за автономию в Туркестане демократическая национальная государственность идеология истеблишмента также формировалась.

Ключевые слова: Автономия, свобода, модернизм, просвещение, Туркестан, Советская власть, большевики, Ташкент, Курултай, Махмудхуджа Бехбуди, национал-демократ, Европа, Азия, Россия, Большой Туркестан, 27 ноября, Эль-Байрон.

Aytish mumkinki, jadidchilikning paydo bo‘lishi va shakllanishi masalalari ancha to‘liq yoritildi. Biroq hanuz chuqur idrok etishni talab qiluvchi bir qator muammolar mavjud. Bunga, birinchi navbatda milliy demokratlarning Turkistonda milliy davlat qurilishining o‘ziga xos konsyepsiysi, o‘lkani feodalizm va mustamlakachilikning boshi berk ko‘chasidan olib chiqish mafkurasining shakllanish, bolsheviklarcha totalitarizmga muqobil ravishda g‘oyaviy-siyosiy kurash maydoniga chiqishlari, jamiyat hayotini yangilashning demokratik mexanizmlarini ishlab chiqishga qo‘sghan hissalarini kabi masalalar kiradi.

1917-yil aprelida Toshkentda jadidchilik harakati yo‘lboshchilarining tashabbusi bilan Turkiston musulmonlari Qurultoyi chaqirildi, unda o‘lka musulmonlari Sho‘rosi saylandi; Uning tarkibiga o‘sha davrning mashxur siyosiy arboblari Mahmudxuja Behbudi, Ubaydulla Xo‘jayev, Nosirxon To‘ra, Muhammadjon Tinishpayev, Mustafo Chuqayev va boshqalar kirdilar.

Turkiston milliy demokratlari tomonidan taklif etilgan “muxtoriyat” mafkurasi jahon va mintaqaviy mustamlakachilikka qarshi harakatlar g‘oyalari, Yevrona, Osiyo, Rossiya mutafakkirlari, o‘lka taraqqiyparvar ziyolilarining o‘z taqdirini o‘zi belgilash muammolarini ijodiy idrok etish tajribalariga tayangan holda yaratildi.

1917-yil 26-noyabrda soat 12 da tashkiliy byuro a’zosi Mustafo Chuqayev s’yezdni ochiq deb e’lon qildi. Mandat komissiyasi a’zosi Toshpo‘lat Norbo‘tabekov ishtirokchilarni delegatlar tarkibi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirdi. Bu paytga kelib s’yezdda: Farg‘onadan 150 kishi, Sirdaryodan—22, Samarqanddan—21, Kaspiy ortidan bir, Buxorodan to‘rt nafar delegat qatnashayotgan edi. Keyinchalik s’yezd ishtirokchnlari soni 250 kipshga yaqinlashgandi (“Ulug‘ Turkiston”, 1917, 8-dekabr).

Uch kun mobaynida s’yezd ishtirokchilari Turkiston O‘lkasining bo‘lg‘usi siyosiy tuzilishi haqidagi o‘z qarashlarini belgilab olishdi, bular s’yezdda qabul qilingan hujjatlarda o‘z aksini topdi.

Xususan, 27-noyabrda quyidagi mazmunda deklaratsiya qabul qilindi: “Yashasin Turkistan Muxtoriyati!

28-noyabrda tashkil topgan davlatning nomi “Turkiston Muxtoriyati” deb ataladigan bo‘ldi. Hokimiyat tarkibi esa quyidagicha shakllanishi lozim edi: Ta’sis s’yezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to‘la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston xalq (Milliy) Majlisi qo‘lida jamlanadi. Muvaqqat Kengash a’zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo‘ldi.

Turkiston Muvaqqat Kengashi a’zolarining soni ilgari Butunrossiya Ta’sis Majlisiga Turkiston o‘lkasidan saylangan nomzodlar soniga qarab aniqlandi (32 kishi) (“El bayroni”, 1917, 22-dekabr).

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917-yil 13-dekabrdan bo‘lib utgan fojiali vokealar tub burilish nuqtasi bo‘ldi. Shu kunini inqilobdan so‘ng Turkiston zaminida ilk marta xalq qoni to‘kildi.

Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati Mavludi-sharif bayrami kuni, ya’ni 13-dekabrnii “Turkiston Muxtoriyatining milliy jamg‘armasiga pul yigash kuni” deb e’lon qildi hamda bu mablag‘ mustaqillik va ozodlikni mustahkamlashga xizmat qilishini bildirdi.

17-18-fevralda muzokaralar davom etdi. Shu chog‘da 18-fevralda “Ulamo” jamiyatি tashabbusi bilan Muxtoriyatda to‘ntarish yuz berdi va buning natijasida Mustafo Choq‘ayev boshchiligidagi hukumat mahkamasi ag‘darildi. Shundan keyin boshqaruv Qo‘qon militsiyasi boshlig‘i kichik Ergashga o‘tdi. Turkiston Muxtoriyatini himoya kilish, uni bolsheviklar tajovuzidan saqlab qolish Ergash Qo‘rboshiga topshirildi. Bu to‘ntarishdan so‘ng, 18-fevraldan 19-fevralga o‘tar kechasi Toshkentdan Turkiston o‘lkaysi harbiy komissari Y. L. Perfiliev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon qo‘shin yetib kela boshladi. Sovet qo‘shinlari Qo‘qonni uch tarafdan qurshovga oldi. Artilleriya to‘plari to‘liq jangovar holtag keltirib qo‘yildi. 19-fevral kuni soat 10:15 da Ergashga talbnoma (ultimatum) yuborildi. Unda qurloni tashlab, Taslim bo‘lish aytildi. JAvob berish muddati soat 13:00 da tugar edi. 12:45 da javob olindi – Ergash shartlarni bajarmaslikni aytidi.

Perfiliev barcha 12 ta zambarakdaya Qo‘qon aholisi ustiga o‘t ochishni, shu jumladan yondiradigan snaryadlardan foydalalishni buyurdi. Tinch aholini to‘pga tutish kunduz soat 1 dan boshlanib shomgacha shaharni vayron etib tashladi. Ammo shunga qaramay, muxtorjyatchilar taslim bo‘lmay, har bir binoni, har bir do‘konni, har bir karvonsaroyni mardlarcha himoya qiladilar. Turkiston Muxtoriyati hukumati 19-fevralda ag‘darildi, biroq shaharni talash davom etdi. Mavjud bo‘lgan uzuq-yuluq ma’lumotlardan shu narsa anglandiki, Muxtoriyat Hukumati a’zolaridan Hidoyatbek Yurali Agayev, Mirodil Mirzaahmedovlar qatl etilgan, tasodifan omon qolganlari qamoqqa olingan. Mustafo Cho‘kayev olovli xalqadan chiqishga muvaffaq bo‘ldi.

U avvalo qo‘zg‘olonchilar turgan joyga, so‘ngra yolg‘izlikda tog‘li qirg‘iz tumanlari orqali o‘sha yillarda mustaqil bo‘lgan Gruziyaga yetib oladi va darhol Kavkaz xalqlarining demokratik harakatiga qo‘shiladi. Biosirxont^ra bolsheviklar tomonidan Namanganda, S. Rersfeld Samarkandda, Obidjon Maxmudov Buxoroda qo‘lga olinadi.

Hamma yoqda o‘liklar yotibti. Ularning bir qismi kuyib ketgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, shu fojiali voqealar oqibatida 10000 dan ziyod kishi halok bo‘lgan. Shaharda 1918-yili kelgan ingliz kapitani A.Brun uni yarim bo‘sh holatida ko‘rgan. Uning yozishicha, shaharni bosib olishda ishtirok etgan nemis, avstriyalik, venger asirlaridan yollangan soldatlar 10000 so‘mdan ortiq pulni o‘marishgan.

Xulosa

Sovet tuzumi bu vaxshiylikni qo‘rqtish uchun amalga oshirdi, u markazning roziligesiz “muxtoriyat”ni Turkistonda hech kim va hech qachon o‘zboshimchalik bilan barpo etmasin degan maqsadni ko‘zda tutdi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, Turkiston Muxtoriyati tor-mor etilgach, 1917-yil dekabrida qozoq milliy demokratlari tomonidan Orenburgda tashkil etilgan Alash-O‘rda avtonomiysi hukumatining taqdiri ham 1920-yil mart oyida shunday bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyati hukumatining ag‘darilishi turkistonliklar tarafidan Rossiyaning o‘lkaga nisbatan tajovuzkorona rejalarini borliganing yangi dalili sifatida qabul qilindi va ular o‘z Vatanlarini bosqinchikchilardan himoya qilish uchun ko‘lda qurol bilan ko‘tarildilar. Shundan keyin, bu yong‘in, bu olovlar qa’ridan xalq qahr-g‘azabi bosqinchilarga nafrati, ko‘ngilga tugilgvn o‘chi sifatida sovet tarixi fanida “bosmachilik” deb atalgan harakat qaqnus qush kabi yorib chiqdi.

REFERENCES

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlар tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
4. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIY-IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.

5. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
6. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
7. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1-5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
8. Sayfutdinov , F. (2024). MANG'IT AMIRLARI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI ME'MORCHILIK SOHASI RIVOJI. *Modern Science and Research*, 3(10), 620–629. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/45335>
9. Ilniyazovich, S. F. (2024). *Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century*. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4 (9), 159–165.
10. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
11. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
12. Sadullayev , U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(4), 376–385.
13. Sadullaev , U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(5), 344–352.
14. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(6), 238–241.